

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Tashpulatov	
Basketbol texnikasini o'rgatish metodikasi	98
D.Rafikova	
Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonidagi pedagogik amaliyotning ahamiyati	103
A.Muxametov	
Qo'l to'pi o'yini darvazobonini tayyorlashning uslubiy yo'llari	107
A.Kdirbayeva, Y.Ryabova, A.Abdikadirov	
Uzluksiz pedagogik amaliyot – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligining eng muhim komponenti	113
G'.Shermatov	
Yosh bolalarga kurash sport turlarini o'rgatish.....	121
N.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish videomateriallari	130
F.Karimov	
Keksa yoshdagi 60-64 yoshli erkaklar uchun jismoniy holatini inobatga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasi uslubiy tavsialari.....	135
Y.G'afforov	
Ta'lim sifati va o'qitish metodlarini tanlashning asosiy jihatlari.....	145
A.Tadjibaeva	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash vositasi sifatida.....	150
M.Tairova	
Aholini sog'lomlashtirish uchun jismoniy mashqlarning tejamkor texnologiyalari	157
M.Baybaeva, I.Imomov	
Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmali modeli	160
R.Turgunbayev, K.Kodirov, A.Nishonboyev	
O'quvchilarda umummatematik faoliyat usullarini shakllantirish modeli	164
S.Uraimov	
Umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini o'rganish va tadqiqot qilish.....	170
G'.Ernazarov	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	174
S.Uraimov	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy xususiyatlari.....	179
R.Nazimov	
O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy usullar asosida tashkil etish	182
S.Isroilova	
Rus tilini o'qitish va muloqot qilish jarayonida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish	187
M.Tojiboyev, D.Yunusova, M.Xursantova	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi	191
Q.Iqboljon	
Sharq allomalari musiqiy merosida bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimining gnesiologik tahlili.....	195
O.Fozilova	
Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondashuv usullari	201
A.Zaripova	
Oliy ta'lim muassasalarida noan'anaviy ta'lim berish metodlarini amaliyotga joriy etish orqali chet tillarni o'qitish sifatini yaxshilash.....	205
B.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik madaniyatini rivojlantirishining nazariy-metodologik asoslari.....	209
N.Karimov	
O'quv dala amaliyotida poxodlarni tashkil etishda gigiyenik qoidalarga amal qilish tartibi.....	212

SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY MEROSIDA BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARI
AXLOQIY – ESTETIK QADRIYATLAR TIZIMINING GNESIOLOGIK TAHLILI

ГНЕЗИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ЭТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ В МУЗЫКАЛЬНОМ НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ

GNESIOLOGICAL ANALYSIS OF THE SYSTEM OF ETHICAL AND AESTHETIC
VALUES OF FUTURE MUSIC TEACHERS IN THE MUSICAL HERITAGE OF EASTERN
SCIENTISTS

Iqboljon Qirg'izov¹

¹Qirg'izov Iqboljon

– Farg'ona davlat universiteti musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharq allomalarining musiqa ilmiga oid qarashlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik fazilatlarini shakllantirishning gnesiologik asoslari ochib berilgan bo'lib, unda milliy maqom san'ati va an'anaviy ijrochilikning dunyoga kelishi tarixiy taraqqiyoti, xalq bastakorlari hamda ustoz hofizlar ijodining o'ziga xoslik xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug'diy, Abu Bakr Rubobiy, Abul Abbas Baxtiyor, Abdulqodir Marog'iy, Darvish ali Changiy, Paxlavon Muhammad, Alisher Navoiy singari yetuk mutafakkir olimlarning asarlari orqali bo'lajak musiqa o'qituvchilarining axloqiy – estetik fazilatlarini takomillashtirish g'oyalari tahlili yoritilgan

Аннотация

В данной статье раскрываются гнесиологические основы формирования нравственно-эстетических качеств будущих учителей музыки во взглядах восточных ученых на науку о музыке, исследуются характеристики его своеобразия. Также через произведения известных композиторов и исполнителей, таких как Борбад Марвази, Абу Хазфз Сугди, Абу Бакр Рубаби, Абул Аббас Бахтияр, Абдул Кадир Мароги, Дарвиш Али Чанги, Пахлавон Мухаммад, Алишер Навои, у будущих учителей музыки внедрялись идеи совершенствования – выдвигаются эстетические качества.

Abstract

This article reveals the gnesiological foundations of the formation of the moral and aesthetic qualities of future music teachers in the views of Eastern scientists on the science of music, and explores the characteristics of originality. Also, through the works of famous composers and performers, such as Borbad Marvazi, Abu Khafz Sugdi, Abu Bakr Rubabi, Abul Abbas Bakhtiyar, Abdul Kadir Marogi, Darvish Ali Changi, Pakhlavon Muhammad, Alisher Navoi, future music teachers introduced ideas of moral improvement - aesthetic quality.

Kalit so'zlar: manba, gnesiologiya, afsonaviy ijrochilik, axloqiy – estetik, nazariyotchi, qadriyat, bastakor, musiqiy meros.

Ключевые слова: источник, гнесиология, мифоспектакль, нравственно-эстетическое, теоретик, ценность, композитор, музыкальное наследие.

Key words: source, gnesiology, mythical performance, moral-aesthetic, theorist, value, composer, musical heritage.

KIRISH

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloirylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lg'on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Roho'», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari kuylari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimini rivojlantirish borasidagi gnesiologik asos bo'la oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i (To'rt maqom), «Dugoh Xusayniy»ning yettita

yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, xalq tafakkuridan o'rin olgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, musiqiy madaniyatimiz uzoq tarix bilan bog'langandir. Bunga qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari, miniatyura ko'rinishidagi shohlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochiligimizning sadolari asrlar osha bizgacha yetib kelganligidan hamda axloqiy – estetik qadriyatlar tizimini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shganligi bilan e'tiborga molik.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Lekin X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. VI-VII asrlarda yashab ijod etgan O'rta Osiyolik Faxlobod Borbad haqida ma'lumotlarga qaraganda musiqashunoslik, bastakorlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q san'atkor bo'lganligi e'tirof etiladi.[1] Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo'lganligi haqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi bo'lganligini aytib o'tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning 4 torli bo'lganligini yozadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa, «Bo'yi juvi muliyon» she'rini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo'lyozmalarda ko'rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallaev qadimiy qo'lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog'ora, qo'biz, tabl, tanburok, zir, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg'u asboblari o'lkamizda keng tarqalganini va o'n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ta'kidlab o'tganligi axloqiy – estetik qadriyatlar tizimini rivojlantirishda gnesiologik asos bo'la oladi.

O'sha davrning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi va qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari haqida namunalar berilgan bo'lib, o'sha zamonda qo'shiqchilik janri rivoj topganini ko'rsatadi.

X-XII asr musiqa va ashula san'atiga doir bayon etilgan noyob ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asarida ham uchraydi. X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr Al Forobiy (873-950) bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida Ovro'pa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobiy o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarini ishlash ustida ijod qildi va «Qonun», «G'ijjak» kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan «Kitab ul musiqa al- kabir» («Katta musiqa kitobi»), «Kalom fakultet-il musiqi» («Musiqha haqida so'z»), «Kitob fi ixsoal ibko'» (kuylar tasnifi haqida kitob), «Kitob fi-n naqra muzofa ilal ibqo'» (Ritmga qo'shimcha qilnadigan siljishlar haqida kitob) kitoblari ma'lum.

Forobiy Turkistonning Forob (O'tror) shahrida tug'ilgan bo'lib, uning otasi Muhammad Tarxon turkiy qabilalardan edi. Avval O'trorda, o'qib, so'ngra Bog'dodga borib unda falsafa, tabiyot, musiqa fanlari bilan chuqur shug'ullanadi. Qadimgi Yunon faylasuflaridan Aflotun (Platon), Arastu (Aristotel) larning dunyo qarashlarini chuqur o'rganib, ularning ta'limotlarini qaytadan ishlab chiqdi. Bu esa unga Aristoteldan keyin «Ustod soniy» (Ikkinchi ustod) nomini beradi. U o'sha davrning eng o'tkir sozandasi, bastakori, O'rta Osiyoda va Yaqin Sharqda musiqa madaniyatining yirik arbobi sifatida tanildi. Forobiy o'sha davr ijrochilik san'atida ham benihoya katta shuhrat qozondi. Uning musiqa yo'nalishidagi nazariy asarlari kelajakda O'rta Osiyo xalqlari musiqa fani taraqqiyotiga asos bo'ldi va shu bilan birga, dunyo musiqa fani rivojiga ham katta hissa bo'lib qo'shildi hamda musiqiy merosida bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining genesiologik asoslari bo'lib xizmat qildi.

Ulug' alloma Abu-Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa nazariyasi bilan shug'ullangan bo'lib, 1931-yilda Mahmud al Xavfning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag'ishlangan kitobida Abu Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyachisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to'g'risida ma'lumot beradi. Shu kitobda olimning musiqa haqidagi «Kitob un najot» asarining Arabchadan nemischaga tarjimasini berilgan. Abu Ali Ibn Sino meditsina, falsafa, musiqa sohasida «Alqonun fit-tib» («Tib qonun»), «Kitob ul shifo» («Shifo kitobi»), «Donishnoma», «Risola fial musiqiy sayr mo fi al shifo» («Musiqha to'g'risida» «Shifo»da berilgandan boshqa risola) kabi qator

PEDAGOGIKA

asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari «Kitob ush shifo» asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. Yuqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta'sir kuchiga e'tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o'z amaliyotida joriy qiladi. Bu yana o'sha davrda musiqa san'atining yuksaklikka erishganini ham ko'rsatadi. Bu esa Sharq allomalari musiqiy merosi bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining gnesiologik asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Abu Ali Ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, otasi Abdullox asli Balxlik davlatmand va madaniyatli kishi bo'lib, o'g'lini yoshligidan qobiliyati, iste'dodini, zehni ko'ra bilgan holda uning o'qishiga katta e'tibor beradi. Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida Somoniylarning boy kutubxonasidan foydalanadi va Yunon kitoblarini tinmay qiroat qiladi. 999 yilda Qoraxoniylar tomonidan Somoniylar davlati qulatilgach, Urganchga kelib Xorazm olimlari qatoridan joy oladi.

X asrda yashab ijod qilgan Muhammad Ibn Al-Xorazmiy musiqa haqida asar yozib, o'zining «Mafotih ul ulum» deb atalgan qomusiy asariga asosiy boblardan qilib qo'shgan. Xorazmliklar qadimdan musiqa va raqs hamda qiziqchilik shaydosi bo'lganliklariga Alisher Navoiy ham shohidlik beradi. U o'zining «Sab'ai sayyor» dostonida bir musiqashunosni Xorazmdan keltirib gapga solganligini quyidagi misralarda ifodalaydi.

Chun duo qildi, dedi farzona,
Ki dey o'z ko'rgonimdan afsona,
Menki tushmish buyon chuzor menga,
Mulk Xorazm erur diyor menga,
San'atim onda soz cholmoq ishi.
Qilmoyin men kabi ishimni kishi,
«Ilm advor» fan musiqiy
Mendin ul, ilm bo'ldi taxqiqiy.

Tarix zarvaraqlariga nazar solganimizda ulug' bobomiz Amir Temur davrida ham madaniyat va san'at rivojlanganligini guvohi bo'lamiz.

Ayniqsa, Abdulqodir Marog'iyning Shom davlatidan olib kelib saroy musiqachilarining rahbari etib tayinlanganligi ham uning musiqa san'atiga ixlosmand bo'lganligidan dalolat beradi. XVII asr musiqa tarixchisi Darvish Alining ma'lumotiga qaraganda Xoja Abdulqodir Marog'iy Isfahonlik bo'lib, o'sha davr Sharqining buyuk musiqa olimi, bastakor va nazariyotchisi edi. U Samarqandga kelgach, saroy teatri va musiqasiga rahbarlik qildi. Samarqandda o'z maktabini yaratdi, ko'plab shogirdlar tayyorladi va musiqiy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Uning qalamiga mansub «Zubdatul advor», «Maqosidul ilhon» nomli kitoblar yozilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lib, Darvish Ali yana «Miatayin» nomli musiqa to'plami yaratgani haqida ma'lumot beradi.

Amir Temur tuzuklarida o'ninchi toifa hunar-san'at egalaridir. Yozma manbalarda yana shu davrning yirik bastakor sozandalaridan Sayfitdin Nayi va Qutbi Nayi, Said Yusuf (qo'buzz), Darvish bek kabi musiqa sohasida mashhur bo'lgan san'atkorlar qalamga olinadi.

Movarounnahr madaniyati va san'ati, ayniqsa, Ulug'bek (1394-1449) zamonasida yuksaklikka ko'tarildi.

Professor Abdurauf Fitrat Ulug'bek davrida Samarqandda ijod qilgan Darvish Ahmadiy Qonuniy, Sulton Ahmad Nayi, musiqiy risola yozgan qorako'llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos olim mavlono Sohib Balhiy, Shahrizabzlik bastakor Abul Baraka, mashhur sozanda Navoiyning mualimmi Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad ali G'aribiylar kabi o'sha zamonning mashhur san'atkorlarini qalamga olib o'tadi. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvish Alining qalamiga mansub «Tuhfatus surur» asarida aytilishicha, Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqiy olimlardan sanalganligi bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining tarixiy kelib chiqishi bo'yicha asos bo'lib xizmat qiladi.

«Muhit at tavorih» kitobida uni bastakor sifatida «Bulujiy», «Shodiyona» (bu bizgacha yetib kelgan), «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuli Bahri» kabi yirik musiqa asarlari yaratgani ko'rsatiladi. Ma'lumotlarda shahar san'atkorlari ichida yallachi ayollar va raqqosalar ham bo'lganligi aytib o'tiladi.

Ulug'bek vafotidan so'ng san'atdagi rivojlanish davri Hirotga ko'chdi. Buning bevosita rahbarligida ulug' bobomiz Alisher Navoiy turdi, podshoh va shoir Husayn Boyqaro homiylik qildi. Navoiy butun Movarounnahr, Xuroson san'at va adabiyot, madaniyat ahlining sarboni bo'lib yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi. Shu davr ichida o'zbek xalqining musiqa madaniyati yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Buyuk musiqa ustozlari eng iste'dodli talabalarni o'z tarbiyasiga oldi. Yangi

kuylar, qo'shiqlar, musiqa nazariyasiga oid asarlar maydonga keldi, talantli sozandalar, bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Alisher Navoiy homiylik qilgan musiqiy merosida hozirgi yangi O'zbekiston musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining gnesiologik asoslari vujudga keldi

Ustozi va do'sti buyuk shoir Abdurahmon Jomiy ham bu borada qalam tebratib «Risolal musiqiy» asarini yozdi. Bu asarda o'zbek xalqining qadimiy o'n ikki maqomi haqida qimmatli ma'lumotlar berildi. Yana bir zamondosh olim Zaynabuddin Al Husayniy «Qonuni ilmi va amali musiqiy» nomli musiqiy darslik yozib, uni Navoiyga bag'ishladi. Nuriddin Marg'iloniyning «Maqsadul advor» («Musiqa ilmini maqsadi») risolasi ham maydonga keldi. Navoiy faqat san'atkorlarning homiysi bo'libgina qolmay, u musiqa olimi va bastakori ham bo'lgan. Zahriddin Muhammad Bobur uning bir qator musiqa asarlari yaratganini, jumladan «Naqshi» (ashula)lari, «Peshrav» (musiqalari) borligini «Boburnoma» asarida hikoya qiladi. O'zlarining taxalluslari ham «Navo»ga bog'langanliklari zahirida musiqaga yaqindan oshno bo'lganliklarini ko'rsatadi.

Navoiy «Mahbubul-qulub» asarining ikkinchi mutrib (ashulachi), mug'anniy (sozanda) faslida mutrib va mug'anniylar ijrolarini ta'sirchanligi va tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritadi va nay, g'ijjak, tanbur, chang, ud, rubob, qo'buz, qonun, chag'ona, kabi musiqa asboblari fazilatlarini ham ta'riflaydi. «Mezonul avzon» asarida Navoiy tuyuq changi, turkiy, orzuviy, muhabbatnoma, musta'zod kabi xalq qo'shiqlarining 8 turi, ularning vazn xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi. «Hamsatul-mutahayyirin» asarida esa Navoiyning musiqa nazariyasiga katta e'tibor bergani namoyon bo'ladi. Bu asarda Mavlono Ali O'ohning tengi yo'q sozanda, nazariyotchi ekanini va unga bir nazariy darslik yozishni topshirganini aytadi. Bundan tashqari ustod Qulmuhammad, Xo'ja Shahobiddin, Abdullo Marvaridiy, mavlono Binoiy kabi musiqashunoslarning musiqaga oid asarlar yozganlarini ko'rsatib o'tadi. Navoiy «Holoti Pahlavon Muhammad» asarini o'z davrining buyuk bastakori, o'n ikki maqomning takomillashuvida katta hissa qo'shgan Pahlavon Muhammadning musiqa ijodiga bag'ishladi.

Zayniddin Vosifiyning ma'lumotlariga qaraganda, Hirot Safaviylar tomonidan ishg'ol qilinganda besh yuzga yaqin san'at ahli Movarounnahrda ko'chish qilganligi, bular orasida Qosim Ali Qonuniy, ashulachi va sozanda ayol (tug'anniya) Chaqar Xonim, Said Ahmad G'ijjakiy, Muhibi Ali Boloboniy, Xasan Udiy, Xusan Udiy, Xusayn Kuchak nayi, Hofiz Marxonanda, raqqoslardan Maqsud Ali kabilar borligi aytib o'tiladi.

Professor Abdurauf Fitrat ham XV asrda Movarounnahr va Hirotida ijod qilgan «Isirat» ismli cholg'u sozini chaladigan ustod Abulqosim va Xusayn Boyqaroning musiqiy muallimi, Andijonlik mavlono Yusuf Badiy, (Xusayn Boyqaro ham musiqa bilan shug'ullanganligi shundan ko'rinadi), tanburga bir sim qo'shimcha qilib ijro etgan. Mahmud Shayboniy, Abduqodir Marg'iloniy, Habibulloiy changi, Muharramiy chanchi, Ali Shunqar, Mehtar Shamsiddin nog'orachi, Mehtar Imom nog'orachi, Alijon g'ijjakiylar kabi o'sha zamonning musiqiy ustozlari haqida ma'lumot beradi.

XVI-XIV asr musiqiy san'atning taraqqiyotiga nazar solsak, o'rtadagi bir qancha uzilishlardan so'ng, oldinga siljishlar ro'y berganini guvohi bo'lamiz. XVI asrning yirik shoiri va musiqashunos olimi Najmiddin Kavkabi (1576 yilda vafot etgan) rahbarligida o'n ikki maqom yanada mukammallashdi. Darvish Alining hikoya qilishicha, Hirotida tahsil ko'rgan mavlono Najmiddin Kavkabi Ubaydulloxon tomonidan Buxoroga oldirib kelingan va bu yerda o'z maktabini yaratib, o'zbek musiqasi takomili ustida ish olib borgan. U Xo'ja Muhammad Mavlono Rizo Samarqandiy, Xo'ja Xasan Nisoriy, Mavlono Xasan Kavkabi, Boqi jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlagan. Kavkabi «Risolai musiqiy» asarini yaratib musiqa nazariyasi faniga katta hissa qo'shgan.

XVI asr oxiri XVII asrda Shayboniylik davrida Buxoroga turli yerlardan san'atkorlarni olib kelib to'plash davom ettiriladi. Ubaydulloxon (o'zi shoir sifatida devon qildirgan) Hirotni bosib olganda mashhur Hofiz Axiy Garaviy Buxoroga oldirib keladi va Garaviy Buxoroda maqom ijrochilari maktabini tashkil qiladi. Darvish Alining shohidlik berishicha, Axiy Garaviy maktabida Xo'ja Hamza Toshkandiy, Xo'ja Bobo changiy, Darvish Mahmudiy Andijoniy, Hofizi Ushshoqiy kabi Movarounnahrning turli joylaridan kelgan hofizlar tarbiyalanganlar.

XVII asrning yirik sozandasi, musiqa tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali Changi bo'ldi. U 12 bo'limdan iborat «Risolai musiqiy» asarini yaratdi. Bu asar o'sha davr musiqa tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda maqomlar, maqomlarning sho'pbalari, usullariga va musiqa nazariyasiga keng to'xtaydi. Darvesh Ali risolasiga turli davrlarda yashagan sozandalar haqida va o'sha zamon musiqa asboblari tanbur, chang, nay, qo'shnay, qonun, ud, barbad, rubob, qo'buz, rud, g'ijjak, isirat, kungura, dutor, setor, surnay, bolomon, nog'ora, karnay,

doira kabi sozlar to'g'risida keng ma'lumot beradi. Bu davrda yana noma'lum mualliflar tomonidan «Risolatun fiilmil musiqiy», «Risolai karamiya» kabi musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yoziladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'tmishdan maqom va an'anaviy mumtoz ijrochiligining dunyoga kelishida va ijro etilishida barcha davrlarda yashagan xalq bastakorlari va hofizlarining ijodlari davr bilan hamohang bo'lganligini ta'kidlab, bugungi Yangi O'zbekiston islohotlar jarayonida o'ziga xos hissa qo'shganligini ko'rish mumkin. Bunga mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug'diy, Abu Bakr Rubobiy, Abul Abbos Baxtiyor, Abdulqodir Marog'iy, Darvish ali Changiy, Pahlavon Muhammad singari bobokalonlarimizning ijodlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Alisher Navoiyning nasriy uslubda yozilgan asarlarining mohiyati pand-nasihati janri yetakchilik qiladi va odob-axloq masalasi bugungi kunda yoshlarimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada «Mahbubul-qulub» o'ziga xos bir nasihatnoma bo'lib, ijtimoiy tabaqa va guruhlarning ta'rifida qimmatli axloqiy-ta'limiy fikrlarini ilgari surilgan. Mazkur asarning ikkinchi qismidagi ayrim boblari va butun uchinchi qismini axloq-odob masalalariga bag'ishlangan. «Mahbubul-qulub» ning ikkinchi qismi o'n fasl (bob)dan: tavba, zuhd, tavakkal, qanoat, sabr, tavozu va odob, shar' (shariat), tavajjuh (nazar solish), rizo va ishqdan iboratdir. Ikki bob: tavozu va odob hamda ishq bevosita axloq-odob masalalarini ifodalaydi, qolgan boblar esa din va fatalizmga qaratilib, ularda ham (masalan, qanoat va sabr boblarida) axloq-odobga doir ba'zi o'rinlar bor. «Mahbubul-qulub» ning uchinchi qismi kichik-kichik tanbehlardan, hikoyalardan, maqol va hikmatli so'zlardan tashkil topgan. Odob va tavozuni kishining olijanob fazilati deb baholagan Navoiy «odob kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sazovor etar va ul duo burguti bila umrdin barxurdor», «odob tavozu do'stluq ko'zgisig'a jilo berur va ikki jonibdin yorug'luq yetkurur...» deydi va odob-tavozusi tufayli baxtiyor bo'lgan muqbil va odobsizligi oqibatida baxtsizliklarga yo'liqqan mudbir haqida hikoya keltiradi (bu hikoya o'z g'oyaviy mazmuni bilan «Sab'ai sayyor»ning 6- hikoyasiga yaqin tursada, biroq syujeti bilan undan batamom farq qiladi). Sevgi va sadoqatning otashin kuychisi Navoiy «Mahbubul-qulub» da sevgi va sadoqat masalalariga katta e'tibor beradi, U sevgini «axtaredur duraxshanda va bashariyat ko'zi nuru ziyosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining zebu bahosi andin» deb ta'riflaydi. U ajoyib oshiqlar sifatida Farhod va Majnun nomini zikr etadi, Xisrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiyni sevgining haroratli kuychisi deb baholaydi hamda ishq majoz bo'lgan «Shabiston savdosi devonlaridan biri parvoni va guliston havosi noshikeblaridin biri andalibi devona»lar haqida so'zlaydi. Navoiy «Mahbubul-qulub»ning III qismida saxovat va himmat, muruvvat va vafo, til odobi va boshqa masalalar haqida so'zlaydi[2], Tanbehlari, maqol va hikmatli so'zlar keltiradi. U saxovat va himmatni ta'riflab, baxillik va xudbinlikni qoralab bunday deydi: «Saxovat insoniyat borining borvar shajaridur (mevali daraxtidir), bal-ki ul shajarning mufid samaridur (foydali mevasidir). Odamiylik kishva-ning bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining simin gavhari. Saxovatsiz kishi — yog'insiz abri bahor va royihisiz (hidsiz) mushki totor. Mevasiz yig'och hamonu o'tun hamon va yog'insiz bulut hamonu tutun hamon... Isrof saxo emas... yorug' kunda sham'i kofuriy yoqqonni aqlidin begona derlar. Mubohot (maqtanish) uchun bermak xudnamoliq va aning bila o'zin saxiy demak behayoliq. Ulki el ko'rmaguncha bermas — laimdur, saxiy emas. Tilab berganni ham saxodin yiroq bil; ibrom (qistash) bergandin bermaganin yaxshiroq bil. Birta o'tmakni ikki bo'lub, yarmin bir ochg'a berganni saxiy de; o'zi yemay barini muh-tojqa berganni axiy de». Vafo va muruvvatni ham Navoiy insonning olijanob fazilati va sifati deb ta'riflaydi va yashagan muhitidan shikoyat qilib; Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim, Ko'rguzub yuz mehr, ming dardu balosin ko'rmadim,— deydi. Tilni «ko'ngul xazinasining qulfi» va so'zni shu «xazinaning kalidi» deb ta'riflagan Navoiy til odobiga katta e'tibor berib, kishilarni qisqa va mazmunli, o'rinli va mantiqli so'zlashga chaqiradi, sergap, laqma va tiliga ortiqcha erk berganlarni qoralaydi. Shu bilan birga, u maqtanchiq va kibr-havoga berilgan kishilarni ham achchiq tanqid qiladi. Navoiy kishilarga tanbeh berib, «mazlumg'a baxshoyish ko'rguzki, zolimdin osoyish ko'rgaysen, zeridastlarga nafi yetkur, agar tilasangki zeridastlardin zarar ko'rmagaysen», o'zingni «salotin (sultonlar) dargohidin yiroq va xavoqin (xoqonlar) bazmgohidin yiroq tut», deydi va yigitlikni «umr gulshanining bahori... hayot, shabistonining nahori» deb ta'riflaydi. Xalq og'zaki ijodining donishmandi Navoiy «Mahbubul-qulub»da ham bu ijodning bebaho boyliklaridan, ayniqsa, xalq maqollaridan keng foydalandi va o'zi xalq maqollari talqinida ko'pgina hikmatli so'zlar yaratdiki, ularning ko'pchiligi maqolga aylanib ketgan. Binobarin, maqol xalq hayoti, uning tajribasi va donishmandligining ifodasidir. Navoiy «Mahbubul qulub»da ayniqsa axloq-odob masalalariga doir maqollarga ko'proq murojaat qiladi. U maqollar yoki hikmatli so'zlar orqali ma'lum bir masala haqidagi fikr-

mulohazalarini yakunlaydi, ularga xulosa yasaydi. Maqol va hikmatli soʻzlar «Mahbubul-qulub»ning mazmunini, gʻoyaviy qimmatini boyitish bilan birga, uning badiiy ahamiyatini ham oshiradi, tilini yanada shirali qiladi. «Mahbubul-qulub» xalq ogʻzaki ijodini, ayniqsa, eng ommabop boʻlgan maqol janrini oʻrganishda muhim manbadir. Bu asardagi koʻpgina maqollar yo aynan, yoki qisman oʻzgargan holda hozirgi kunga qadar ishlatilib kelmoqda. Navoiyning

«Er kishiga zebu-ziyat hikmat va donishdur»,

«Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim va orlanib soʻramogʻon oʻziga zolim»

kabi hikmatli soʻzlari esa xalqimizning buyuk qadriyatiga aylanib ketdi. Va bu hikmatli iboralar yangi Oʻzbekiston oʻqituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining gnesiologik asoslari boʻlib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish oʻrinliki, Sharq allomalarining musiqiy merosida boʻlajak musiqa oʻqituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining gnesiologik ilmiy asoslarini talabalarga taʼlimdagi fanlararo hamkorlikdagi darslarda amalga oshirish imkoniyatlaridan unumli va oʻrinli foydalanishlarini taʼkidlash mumkin. Bu oʻz navbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan taʼlim sifatini rivojlantirish omili boʻlib xizmat qilishiga umid qilamiz.

TAVSIYA

Sharq allomalari musiqiy merosida boʻlajak musiqa oʻqituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimi rivojining gnesiologik asoslarini rivojlantirishda quyidagi tavsiyalarni keltirib oʻtamiz.

Sharq allomalari hayoti, ijodi va ularning musiqa ilmiga oid qarashlarini boʻlajak musiqa oʻqituvchilariga atroflicha oʻrgatish;

boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining axloqiy – estetik fazilatlarini rivojlantirishda Sharq allomalarining musiqa ilmiga oid qarashlarini oʻzlashtirilishini tizimli tashkil etish;

boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining axloqiy – estetik fazilatlarini rivojlantirishda Sharq allomalarining musiqa ilmiga oid qarashlarida musiqiy taʼlim va tarbiyani ilmiy-nazariy tahlili, ularning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatish.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1 Sh.Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: Oʻzbekiston, 2016-yil-56 b.

2. Alisher Navoiy Toshkent Gʻofur Gʻulom nashriyoti 2021

3. I. Abdulloh “Maʼnaviyat va maʼrifat”, «Milliy tiklanish» gazetasining 1998 yil 12 noyabr soni.

4. S.Mirvaliev “Maʼnaviyat ufqlari”, “Muloqot” jurnali, 1997-yil 6-son.

5. M.Xayrullaev, D.Shoraxmedov “Madaniyat va meros”. Toshkent «Sanʼat» nashriyoti, 1973 y.

6. N.Joʻraev, T.Fayzullaev, Q Usmonov “Oʻzbekiston tarixi” Toshkent-1998 yil.

7. <https://art.jspi.uz/index.php/art/index> № - 1 Журнал музыки и искусства Том - 3

8. <https://art.jspi.uz/index.php/art/index> № - 1 Журнал музыки и искусства[1]